



## FEATURES OF MIGRATIONS OF HUNS, YUEZHI, AND TURKIC TRIBES ACROSS THE REGION

**Akmal Ismoilov**

*Senior lecturer*

*Tashkent International University of Kimyo  
Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Huns (Xiongnu), yuezhi, turks, chionites, migration, hephthalites, kidarites, Chinese sources, Western Roman Empire, white huns, red huns, black huns, blue huns, Tengri Tagh (Tian Shan).

**Received:** 04.03.25

**Accepted:** 06.03.25

**Published:** 08.03.25

**Abstract:** This article explores the dynamic and contentious aspects of migration processes in Central Asian territories during ancient and early medieval periods. It provides comprehensive information about the Huns who inhabited Inner Asian regions and their westward movement, including its causes and consequences. The article also discusses the spread of Turkic tribes in the Altai region and the migrations of nomadic Yuezhi people who shifted from the north to the south.

## HUNLAR, YUECHJILAR VA TURKIY QAVMLARNING MINTAQА BO'YLAB MIGRATSİYALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

**Akmal Ismoilov**

*o'qituvchi*

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti  
Toshkent, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** hunlar (syunnu), yuechjilar, turklar, xioniylar, migratsiya, eftaliylar, kidariylar, Xitoy manbalari, G'arbiy Rim imperiyasi, oq hunlar, qizil hunlar, qora hunlar, ko'k hunlar, Tangritog' (Tyan-shan).

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qadimgi va ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyo hududlarida kechgan migratsion jarayonlarning qizg'in va baxsli tomonlari ochib beriladi. Ichki Osiyo hududlarida yashagan hunlar va ularning g'arbg'a siljishi uning sabab va oqibatlari hamda Oltoy hududlarida tarqalgan turkiy qavmalarning tarqalishi va shimaldan janubga siljigan ko'chmanchi yuechjilarning migrtasiyalari haqida ham atroflicha ma'lumotlar berib o'tiladi.

## ОСОБЕННОСТИ МИГРАЦИЙ ГУННОВ, ЮЭЧЖЕЙ И ТЮРКСКИХ ПЛЕМЕН ПО РЕГИОНУ

**Акмал Исмоилов**

*Старший преподаватель*

*Ташкентского международного университета Кимё  
Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** гунны (сюнну), юэчжи, тюрки, хиониты, миграция, эфталиты, кидариты, китайские источники, Западная Римская империя, белые хунны, красные гунны, черные гунны, голубые гунны, Тянь-Шань. (Тенгри-Таг).

**Аннотация:** В данной статье раскрываются активные и дискуссионные аспекты миграционных процессов, происходивших на территории Центральной Азии в древности и раннем средневековье. Приводятся подробные сведения о гуннах, населявших территорию Внутренней Азии, их продвижении на запад, причинах и последствиях этого движения. Также рассматривается распространение тюркских племен в районе Алтая и миграции кочевых юэчжи, перемещавшихся с севера на юг.

Ma'lumki, hun qavmlarining tarixi, ularning ijtimoiy hayoti, turmush tarzi qadimgi va ilk o'rta asrlar davri tarixi uchun alohida o'rin tutgan. Bu qabilalarning kelib chiqishi, azaldan qaysi hududlarda yashab kelganligi, ularning siyosiy tuzumi haqida Xitoy manbalarida bir qancha ma'lumotlar saqlangan. Tarixiy manbalar *shyungnu* (ruscha transkriptsiyasida *syunnu*, yevropada *gun*), deb nomlangan hunlar Markaziy Osiyoning qadimgi qabilalaridan biri edi. Sima Szyanning "Shiszi" asarining 110-bobida keltirilishicha, mil. avv. XIII-III asrlarda bir necha urug' va qabilalardan iborat hunlar son jihatidan ko'paygan. Ular Tuman Tangri qut (xit. Touman) davrida (mil.avv. 240-210) bir necha yirik va mayda qabilalar ittifoqiga birlashgan. Ular Ichki Mo'g'uliston, Ordos va hozirgi XXRning Shensi viloyatlari hududida yashagan. Shu bois, hunlar asrlar davomida Xitoy qabilalari va elatlari bilan yonma-yon yashab kelganlar. Mil. avv. II ming yillikdan boshlab Xitoy manbalari hun (yun, kyun)lar haqida ma'lumotlar bera boshlashgan. Bu manbalarda keltirilishicha, hunlar Tuman Tangri-qutning o'g'li Batur Tahgri-qut (xit. *Mektuen, Modun*) davrida (mil.avv. 209-174) qo'shni qabilalarni ham o'ziga bo'sundirgan Hun davlati qo'shini soni 300 mingga yetgan. "Shiszi"ga ko'ra, hunlar Kruran (Lovlan), Usun (Asuen), O'g'uz (Xusze) va yana 26 davlatni bo'ysundirgan. Bu davrda hunlar tomonidan egallangan hududlar chegarasi butun Markaziy Osiyonni o'z ichiga olgan edi.

Xitoysunos X. Azimovning tadqiqotlariga ko'ra, Xan imperiyasi davri (mil.avv. 206-220 yy.)da uning shimalida joylashgan Hun hoqonligi ham qudratli davlatlardan biri edi. Bu davlat Xitoyning g'arbidagi yerlarning egasi edi. Shu bois Xan imperatorlari to'g'ridan-to'g'ri Markaziy Osiyo davlatlari bilan siyosiy-diplomatik aloqalar o'rnatish imkoniga ega bo'lмаган. Shu bois

Xan ma'murlarining maqsadi Hun xoqonligini zaiflashtirib, g'arb bilan bevosita aloqa o'rnatish bo'lган. Mil. avv. III-II asrlarda Hun xoqonligi va G'arbiy Xan imperiyasi o'rtasidagi ziddiyat ancha kuchaydi. Bu davrda Xitoy ma'murlari o'zlarini "Osmon tagidagi yerlar egasi", "Tangrining yer yuziga yuborilgan vakili", deb bilishgan. Shu g'oya ostida hududlarini g'arbdagi qo'shnisi Hun xoqonligi hisobiga kengaytirish, ularni o'zlariga tobe qilish siyosatini olib borganlar. Albatta, Hunlar Xitoyning bu siyosatiga qarshi bo'lishgan. A. Xo'jayevga ko'ra, bu davrda Ordosda yashagan hunlar ham o'zlarini "kyun – quyosh", deb ulug'lashgan. Hun nomi ham aynan shu atama bilan bog'liq ko'riladi.

Xitoyning Xan sulolasi va Hun xoqonligi o'rtasidagi bitimga ko'ra: "Hunlar (kyunna/syunnu) [Xan] chegarasidan o'tmaslik, xanlar esa o'z hududlaridan chiqmaslik majburiyatini oladi. Ushbu bitimni buzganlar qatl etiladi". Shu bahonada Sin Shi-xuandi shimoliy chegarasi bo'ylab qurilgan devor (Buyuk Xitoy devori - Chanchenni) yanada shimolga cho'zdiradi. Bu esa tabiiyki, bitimning buzilishi bo'lib, Hun xoqonligining e'tiroziga sabab bo'ladi. Shu kabi qator ziddiyat narijasida mil.avv. 209-97-yillar oralig'da o'zaro harbiy to'qnashuvlar ro'y bergen. Dastlabki urushlarda hunlarning qo'li baland kelgan bo'lsa, keyinchalik Xitoy qo'shini hunlarni mag'lub etishga muvaffaq bo'lgan. Bir necha jiddiy to'qnashuvlardan so'ng Hunlar Xitoyning Xan sulolasi asoratiga tushib qolgan va faqatgina milodiy I asrda Xitoy ta'siridan chiqib, migrantsion jarayonlarga qo'shilgan. Tarixdan ma'lumki, G'arbg'a "hunlarning buyuk ko'chishi"da bevosita Xitoyning ta'siri bo'lgan. Bu jarayon Markaziy Osiyo va Sharqiy Yevropadagi etnosiyosiy hayotga ham o'zining ta'sirini ko'rsatgan edi.

Tarixchi, arxeolog F. Maqsudovning ta'kidlashicha, mil.avv. III-II asrlardan boshlanib, milodning taxminan VI asrlarigacha davom etgan Yevropa xalqlari tarixshunosligidagi "Xalqlarning buyuk ko'chishi", deb nom olgan yirik jarayon bevosita hunlarning ko'chish bosqichlari bilan ham bog'liq. Aynan shu bosqich davomida Markaziy Osiyoning shimoli-sharqiy hududlaridan Buyuk Dasht orqali Yevroosiyoning markaziy va sharqiy mintaqalariga ko'plab chorvador qabilalarning, jumladan hunlar (gunlar)ning migrantsiyasi kuzatiladi. Bu qabilalarning ayrimlari Volga-Ural oralig'idagi ugorlar bilan aralashib borgan bo'lsa, ayrimlari (eftallar, hioniylar) janubiy yo'nalish bo'ylab harakatlanib, O'rta Osiyoga kirib kelganlar. Bu yerda o'z davlatchilagini qayta tiklash barobarida, mahalliy davlatchilik an'analariga ham jiddiy ta'sir ko'rsatmadilar. Ko'chmanchi-chorvador odatlari bo'ycha mahalliy hokimliklardan olinadigan soliqlar va aholidan undiriladigan tushumlar bilan cheklandilar. Eng asosiysi eftaliylar mintaqani Sosoniylar tajavvuzidan saqlab qoldi. Qolaversa, hun qabilalarining bir qismi yanada janubga va janubiy-g'arb (Eron, Hindiston, Yaqin sharq tomonlar)ga ko'chib o'tdilar.

Buyuk ko'chishlar Ichki Osiyo (bugungi Mo'g'uliston, Oltoy, shimoliy Xitoy hududi va sharqiy Turkiston hududlari)dan boshlanib, g'arbiy va janubiy-g'arbiy yo'nalishda Yevropaning

sharqiy va markaziy hududlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Bu ko‘chishlarga siyosiy sabablardan tashqari, iqtisodiy, demografik va tabiiy omillar ham jiddiy ta’sir ko‘rsatgan. Xususan, sanab o‘tilgan hududlarda mil. avv II asrlarda demografik portlash jarayoni kuzatiladi. Bunday demografik-iqtisodiy jarayon, ya’ni mintaqada aholi sonining ko‘payishi va tirikchilik zahiralarining cheklanganligi ayrim qavmlarni boshqa mintaqalardan yashash uchun qulay bo‘lgan makonlar izlashga ehtiyoj tug‘dirgan. Mana shunday migratsion jarayonlarni boshidan kechirgan qavmlardan biri hunlar bo‘lib, Xitoy manbalarida ular *syunnu* nomi bilan qayd etilgan. Ayni paytda g‘arbgan etib borgan hunlar rus va Yevropa manbalarida *gun* (*gunnu*), degan atama bilan uchraydi. Aynan gun yoki gunnular milodning III-IV asrlarida (300-500-yillar) Markaziy va Janubiy Yevropa bo‘ylab hozirgi Vengriya, Ukrainianing janubiy qismlari, Bolgariyaga qadar yetib boradi. So‘nggi Rim imperiyasini qulashida ham bu ko‘chmanchilarning ta’siri katta bo‘lgan.

Hunlar g‘arbiy yo‘nalishda harakatlanib, Yevroosiyoning markaziy va janubi-g‘arbiy hududlari bo‘ylab tarqalishdi. Ularga boshchilik qilgan hukmdorlar orasida Attila alohida o‘rin tutgan. Uning boshchiligidagi hunlar (gunlar) migratsion jarayon oqibatida sharqiy Yevropagacha yetib borib, G‘arbiy Yevropada mavjud bo‘lgan siyosiy vaziyatga o‘zining jiddiy ta’sirini ko‘rsata oldi.

Markaziy Osiyoning janubi-g‘arbiy yo‘nalishi bo‘ylab tarqalgan hunlar bu hududlardagi siyosiy tizimlarni saqlagan holda, iqtisodiy hayotga soliqlar va o‘lponlar orqali o‘z ta’sirini o‘tkaza oldi. Buni Xioniylar (qizil hunlar) va Eftaliylar (oq hunlar) misolida kuzatish mumkin. Shu nomlar bilan tangalar chiqarilgan. Topilgan tangalar tahlili hunlarning nomlanishiga oid ma’lumotlarni saqlab qoltinganiga guvoh bo‘lamiz. Ba’zi manbalarda hunlarning migratsion harakatlarini aks ettiruvchi tomonlarni anglatuvchi ranglar bilan ham atalishi kuzatilgan. Ma’lumot o‘rnida, xioniylarni turli nomlar bilan atash holatlari ham uchraydi. Masalan, ko‘k hun, qizil hun, oq hun, qora hun nomlari bilan ya’ni dunyo tomonlarini bildiruvchi ranglar bilan tasniflanishgan. Xitoy manbalarida eftaliylar edo, endo, shyando, yityan kabi atalgan. Lekin eftallar o‘zlarini hun (*syunnu*), oq hun (bay *syunnu*), ya’ni g‘arbiy hunlar, deb atashgan. Migratsiyalar davomida kelib chiqishi ko‘chmanchi bo‘lgan eftaliylar aksariyati o‘troq yashagan mahalliy hind-yevropa tilli aholi orasida assimilatsiyalashgan. Ularning kelib chiqishi ham hunlarga, ham dayruzielarga, ham gaochelarga bog‘langan. Biroq o‘zlarini hun (shyungny) yoki oqhun (bay shyungu) deb nomlagan bu elat assan chorvachilik bilan shug‘ullangan. Ularning ajdodlari to Turonga migratsiya qilganiga qadar o‘tmishda Oltoy (Oltintog‘ –Jing-shan)da yashashgan. Shu bois eftallarning qonun-qoidalari, urf-odatlari va tili hunlar hamda turkqut (tujyue)larga o‘xshashligi aytildi. Bu haqda 551-554-yillarda bitilgan “Vey [sulolas] tarixi” (“Yye-shu”)da ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, 630-636-yillarda yozilgan “Suy [sulolas] tarixi”da eftaliylar dayruzie (dayueji)larga bog‘liq ravishda ko‘rsatiladi. Bu ma’lumotlarni 1044-1060-yillarda yozilgan “Tan [sulolasining]

yangi tarixi” da ham takror uchratamiz. Bundan tashqari eftaliylar Gaochelarga va toxarlarga (tuxuoluo) ham bog‘lanadi. Bu ma’lumotlar eftaliylarning Oltoy tomondan Amudaryo bo‘ylari qadar kechgan migrantsion jarayonlarda ishtirok etganligini isbotlaydi. Eftaliylar yunon olimi **Grus** fikricha, V asrning 30-50-yillarida, nemis olimi **V.Baxram** fikricha esa 420-435-yillarda Sug‘d hududiga kelib o‘rnashgan. Arman manbalarida esa eftaliylar mamlakati 450-yil voqealarida esga olinadi. Bu ma’lumotlar eftaliylarning o‘z hokimyatini o‘rnatganligi borasidagi davriy sanada deyarli farq qilmaydi.

Qadimgi va ilk o‘rta asrlardagi migrantsion jarayonlarda yuechjilar (ruzyelar) o‘ziga xos o‘rin tutgan. Bu qabila vakillari “Shitsi”da keltirilishicha, dastlab Dunxuanning sharqida va Silyan tog‘ining g‘arbida yashagan. (Hozirda Dunxuan viloyati Shachjou, Silyan tog‘i Ganchjou viloyatining janubiy-g‘arbidagi hudud hisoblanadi). Ganchjou viloyati hozirgi Gansu viloyatining markazi qismini Xeyshuy-xe (Qorasuv) daryosi bo‘ylarini egallagan. Qadimda bu hududdagi Xessi yo‘lagi migrantsiyalar va savdo uchun qulay joy hisoblangan. Xitoy manbalari va ilmiy adabiyotlari taxlili asosida xulosa chiqargan A. Xo‘jayevning fikricha, yuechji (ruzyelar) qadimda Tangritog‘ning sharqiy qismidagi tog‘li tekisliklar va yaylovlarda ya’ni hozirgi Urumchi va Qorashahar hududlarida Xuanxe daryosining yuqori qismidagi Gansu va Sinxay viloyatlariga qadar yerlarda yashashgan. Ularning azaliy makoni Tangritog‘ning (Tyan-shan) sharqiy qismi ya’ni hozirgi XXR ning Shunjon-uyg‘ur muxtor tumani markazi Urumchi shahri atrofidagi Bug‘dotog‘i tog‘li yaylovlar bo‘lganligi ham keltirib o‘tiladi. Bu hududlarga hunlar ham davogar bo‘lgan. Shu bois o‘zaro ichki nizolar kelib chiqqan.

Ichki Osiyodan janubiy-g‘arbiy yo‘nalish bo‘ylab ko‘chishga majbur bo‘lgan yuechjilar hunlar hukmdori Botur-tangriqut (Maodun mil.avv.210-174) qo‘sishnulari tazyiqi ostida ularning katta qismi - dayuechji (dayruzi) lar mil.avv. 176-174-yillarda hunlardan mag‘lubiyatga uchragach, Ili vodiysi, Yettisuv va Farg‘ona vodiysi orqali Amudaryo bo‘ylariga ko‘chib kelishgan. Ularning kichik bir qismi – syao-yuechji (syao ruziye-kichik ruzyelar) o‘z yurtlarida qolishgan. A. Xo‘jayev bo‘yicha, syao-ruzyelar yoki g‘uz (o‘g‘uzlar) ning 7 ta qabilasi bo‘lib, ularning harbiy qo‘sishnulari soni 9000 kishini tashkil etgan. Bu ma’lumotlar ruziye-xularning umumiyligi soni 45.000 kishi atrofida bo‘lganligini ko‘rsatadi. 220-280-yillarda ruziye-xular ham bu hududlarni tark etib, Pomir tog‘ining g‘arbiga borib joylashgan. Shundan so‘ng Xitoy manbalari ular haqida ma’lumot bermaydi. Garchi hunlar va yuechjilar o‘zaro ixtilofda bo‘lsalarda ular bir-biriga yaqin qabilalar edi. Ularga oid Shensi, Gansu va Ichki Mo‘g‘ulistonda topilgan arxeologik ashyolar buni tasdiqlaydi. Qolaversa, yuechjilar uzoq muddat hunlarga tobe bo‘lgan. Oqibatda, yuechjilarning katta bir qismi yuqorida ko‘rsatilgan yo‘nalish bo‘ylab, Markaziy Osiyoning janubi tomonga migrantsiya qilishga majbur bo‘lishadi. Yuechjilarning Sharqiy Turkistonning Tarim vohasida qolgan qismi shyaoyuechji, deb atalgan. Mil.avv. 128-126-yillarda ko‘chmanchi yuechji

qabilalari yangi davlat Buyuk o‘g‘uz davlati (Dayruzie kuek) / Dayyuechji guo)ga asos solishadi. Mintaqaning janubiy qismlarida mavjud bo‘lgan Yunon-Boxtar davlatini tugatib, uning o‘rnida besh oila asos solgan yangi bir davlat **Kushonlar davlatini** (imperiyasini) tuzishadi. Yuechjilarning bu qabilalar uyishmasi o‘z atrofiga boshqa chorvador qabilalarni ham birlashtirgan konfederatsiya ko‘rinishidagi yirik siyosiy uyushma edi. (Shimoldagi Qang‘ konfederatsiyasi ham huddi shu asosda tuzulgan edi. Bunda qabilalarning sardorlari yoki oqsaqollari o‘z qabilasi ustidan boshqaruv vakolatlarini saqlab, barcha masalalar Oqsoqollar kengashi orqali hal qilingan).

Turkiy xalqlarning ajdodlari qadim zamonlardan Yevroosiyoning o‘rta mintaqasi bo‘ylab tarqalgan. Ular yashagan yerlar sharqda Koreya yarim oroli va Bo‘xay dengizi bilan g‘arbda Qora dengiz va O‘rtayer dengizi bo‘ylarigacha, janubda Hinduqush tog‘larigacha, shimolda Sibir kengliklari qadar cho‘zilgan. Mil.avv. I mingyillikning birinchi yarmida (mil.avv. XXI-XVII asrlar) turklarning ajdodlari tiyek (di) lar qadimgi Xitoya nisbatan munosabatda o‘z faolligi va kuchi bilan ajralib turgan. Shu bois ikki o‘rtada nizolar yuz bergen. Jumladan, “Goyuy” (davlat tili) va (Szaochjuan) Szu Szuminning qissalari) asarlarida keltirilishicha, Chjungun boshqaruvining 32-yili bahorida (mil.avv. 660-yil) tiyek (di) lar Szin davlatiga harbiy yurish uyushtirgan. Bu ma’lumotlar turkiylarning ajdodlari tiyek (di) lar mil.avv. VI asrdayoq Xitoy (Chjungo) shimalida paydo bo‘lganligini ko‘rsatadi. Ular yashagan hududlar tog‘li, tog‘oldi, cho‘l vodiylari vohalardan iborat bo‘lgan. Tabiiy ofatlar, ichki nizolar va tashqi dushmanlarning tazyiqlari tufayli turkiy qavmlar bir joydan boshqa joyga migratsion harakatlarni amalga oshirishga majbur bo‘lganlar. Turkiy qavmlar Xitoy manbalarida turlicha nomlar bilan atalgan. Mil.avv. I mingyillikda tienlien (dinlin), milodiy III-V asrlarda tietlek (tele), milodiy VI asrdan so‘ng tsyuzyue (tujue) ya’ni N.Ya. Bichurin (Iakinf) tugyu, L.I.Gumilyov bo‘yicha, tukyu, P.Pelliot, A.N.Bernshtam, M.Xissao bo‘yicha turk-ut shaklida uchraydi. Ayni paytda III-V asr manbalarida 44 ta tele qabilalari haqida ma’lumotlar keladi. Turkiy qavmlar yashagan hududlar qadimda ham boshqa qabila va urug‘lar uchun ham vatan bo‘lgan. Xitoy manbalaridagi turux qabilasi hozirgi Mo‘g‘ulistonidagi Tola (Dulo) daryosi bo‘yida, Asiena avlodlari esa Baykal ko‘li yaqinida yashashgan. Ular yashagan hududlarga kelib o‘rnashgan migrantlar mahalliy aholi tarkibiga singib ketgan yoki kam sonli mahalliy aholini o‘z tarkibiga qo‘sib olgan. Shular qatoriga yirik davlat va imperiyalar tuzgan jangari ko‘chmanchi qabilalar ittifoqidan iborat bo‘lgan hunlarni va turklarni kiritish mumkin. Qadimgi Xitoy yozma manbalari taxliliga ko‘ra, bu jarayon mil.avv. II asrda va undan keyingi davrlarda ham kuzatilgan. Olimlarning DNKni o‘rganish borasida olib borgan tadqiqotlari migratsion jarayonlarning tabiiy-iqlimi, siyosiy va iqtisodiy omillarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Genetik qonuniyatga ko‘ra, yevropoid va mongoloid irqlar qo‘shilishidan tug‘ilgan farzandlar har ikki irqqa xos xususiyatlarni saqlab qolgan. Bu hunlar va turklarning turli irqlarga mansubligida ham o‘z aksini topgan.

Turkiy qabilalar shakllangan ilk manzil “Beyshi” solnomasiga ko‘ra, g‘arbiy dengizning (*Sixay / Shixay / Lixay*) o‘ng sohili, deb ko‘rsatiladi. Bu hududlardan aynan asina (ashina) qavmlari mil.avv. V-IV asrlarda sharq tomonga migratsiya qilgan. Bu davrda Orol dengizi g‘arbiy sohillarida mil.avv. VII-III asrlarda sak qabilalari yashagan. Prototurkiy qavmlar aynan shu saklarning bir qismi sifatida qaraladi. Bu qabilalar mil.avv. III-II asrlarda Sirdaryo va Ili daryolari bo‘yiga kelib joylashib, chorvachilik bilan shug‘ullanishgan. Ular baland aravalarda yashashgan. Erkak va ayollari chavandozlik va kamonbozlikda bir xil darajaga ega bo‘lishgan. Mazkur saklarning asina avlodlari milodiy V asrlarda Enasoy daryolari bo‘ylariga yetib borishgan. Xitoy manbalarida ular hunlarning shimolida yashagan saklar (so-go, Sak-kuek-Saklar davlati) tarzida qayd etilgan. Keyinchalik asiena avlodlari Boykolning (Beyxay) g‘arbiy-janubiy qismiga kelib o‘rnashgan. Xitoy va boshqa xorijiy manbalar hamda qoyatosh suratlari tahliliga ko‘ra, saklarning yuzi cho‘ziq bo‘lib, qoshlari qalin, ko‘zları yirik va ko‘k, qirraburunli, yupqa labli bo‘lib, boshlariga qush pati o‘rnatilgan uchli qalpoq kiyib yurishgan.

Turkiy qabilalar asrlar davomida shimoldan janubga migrantsion jarayonlarni boshdan kechirib yurgan. Xususan, tuetkiuat qabilalari milodning boshlaridan Xesi yo‘lagi va Xuanxe daryolari bo‘yida xitoyliklar bilan savdo aloqalarini olib borishgan. Shuningdek, ular Turfon vodiysiga ham kelib o‘rnasha boshlashgan. 460-yilda jurjenlar hun qabilalari ustidan g‘alaba qozongach, asienaliklar ham Turfon shimoliy-g‘arbidagi tog‘larga ko‘chib o‘tishga majbur bo‘lgan. Ularga 17 aka-ukadan biri Apangbuak (Apanbu / Abam-beg) boshchilik qilgan. Uning zuriyodlari o‘zlariga ko‘k bo‘rini totem sifatida bilishgan.

Turk xoqonligi davrida esa Markaziy Osiyodan Xitoy hududiga kirib kelgan sug‘diy savdogarlar ta’sirida bu aloqalar yanada jonlangan.

Turkiy qavmlarning VI asrda Oltoyda paydo bo‘lganligi haqidagi qarashlarga e’tiroz bildirgan xitoyshunos olim A.Xo‘jayev fikricha, turkiy qavmlarning ajdodlari mil.avv. V-IV asrlarda qadimdan saklar, massagetlar va daxlarning yurti, deb sanalgan Kaspiy va Orol dengizi (*Shixay-g‘arbiy dengiz*) shimolidagi hududlardan sharqqa ko‘chib, dastlab Ordos kengliklariga u yerdan yana shimoliy g‘arb yo‘nalishi bo‘ylab migratsiya qilib, Dunxuan, Pshamshan, Turfon orqali janubiy Oltoy etaklariga kelib joylashgan. Demak, to Turk xoqonligiga asos solguniga qadar tujyue (tuetkiuat-turk qut) qabilalarining ilk ajdodlari Orol dengizi g‘arbida yashab so‘ng‘ra g‘arbga migratsiya qilgan. Qadimgi xitoyliklar tiek (di), deb atagan turklarning kelib chiqishi Pomirdan Ordosgacha bo‘lgan oraliqda yashagan qadimgi turkiy tilli **kianglarga** borib taqaladi. Kianglar esa Tarim vohasi va Pomirning g‘arbiy tomonlarida yashab dehqonchilik, bog‘dorchilik va chorvachilik bilan shug‘ullangan. Yuqoridagi ma’lumotlar va A.Xo‘jayev keltirgan dalillar qadimgi saklar, massagetlar va daxlar (sug‘diylar, xorazmliklar, chochliklar, toxarlar) ning prototurk qavmlari bilan bir makondan turli yo‘nalishlar bo‘ylab tarqalganligini ya’ni migrantsion

jarayonlar ta'sirida saklar, massagetlar va daxlar janubiy-g'arbiy yo'nalishda harakatlanib, sug'diyilar, xorazmliklar, chochliklar, toxarlarning shakllanishida ishtirok etgan. Xitoy olimlarining arxeologik tadqiqotlari mil.avv. X asrda Sug'd hududida yashagan qabilalar saklar bo'lganligini iddao qilmoqda. Shunga asoslanib, bundan 3 ming yil oldin yashagan Sug'd saklari va Turk xoqonligiga asos solgan asiena (ashina) avlodlari bir etnos vakillari bo'lganligi haqidagi qarashlar A. Xo'jayev tomonidan ilgari suriladi. Prototurklar esa atrofdagi qabilalarni o'ziga qo'shib, milodiy VI asrda Avar (Jujan g'ag'an) xoqonligini yengib, mustaqil Turk xoqonligiga asos solishgan. Xitoy manbalarida Ashina avlodlari tashkil etgan qabila nomi tuetkiuat (tujyue)-(Oltoy) g'oridan chiqqanlar ma'nosini bildirgan. Chunki bu qavmning Oltoy tog'lariga migratsiya qilgunigacha bo'lgan davr kamida 1000 yilni tashkil etadi. Shu davr oralig'ida ular Gobi cho'llari, Ordos, Xeshi yo'lagi, Lobnor ko'li atrofi, Turfon, Qorashar, Jimusa kabi joylarda yashab Oltoy etaklariga yetib borganlar. Xoqonlikning g'arbiy qanoti tarkibidagi qabilalar guruhi (dulu, nushibi) yana g'arbg'a migratsiya qilgan. Turkiy bo'limgan boshqa qabilalar (aksariyati chorvador) turkiylar ta'sirida turklashganlar. Ayni paytda turkiy qavmlarning o'zлari ham o'troq hayotga o'tib, mahalliy aholi orasida assimilatsion jarayonga uchrab borgan. Buni sug'diy hujjatlardagi turkiy ismlar ham isbotlaydi. Turk xoqonligi davrida Sharqiy Turkistondagi o'g'uzlarning bir bo'lagi Mo'g'uliston tomonga ko'chib, boshqa turkiy qabilalar bilan birlashib, shimoliy uyg'urlarning "jyushin, ugusi"—"toqqiz o'g'uz", "jyushin tele / tietlek"—"to'qqiz turkiy" va "jyushin xueyxе" "to'qqiz uyg'ur", deb nomlangan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, qadim va ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyo mintaqasida yuz bergen migratsiyalarning ham iqtisodiy, ham siyosiy, ham tabiiy hodisalar tufayli yuz bergeniga tarix guvoh. Umuman olganda, Markaziy Osiyo hududi birinchi navbatda, qadimgi xalq va elatlarni o'zining muhim strategik nuqatda ekanligi bilan qolaversa, unumdar erlari bilan ham e'tiborini torta olgan. Siyosiy jihatdan nazar solib esa qo'shni hudud rahbarlari bu erlarni o'zining siyosiy ta'sirida ushlab turishni maqsad qilgan. Xitoyning shimoli, shimoliy-g'arbiy hududlarida notinch yashagan qabilalarning Markaziy Osiyo hududlariga ko'chishining sabablari esa mintaqada nisbatan tinchlik va osoyishtalikning hukm surganligida edi.

### **Foydalanimgan adabiyotlar.**

1. Xo'jayev A. Markziy Osiyo xalqlari tarixiga oid ma'lumotlar (qadimiy hamda ilk o'rta asr Xitoy manbalaridan tarjimalar va tadqiqotlar. – Toshkent: Navro'z, 2015.
2. Otaxo'jayev A. Ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida turk-sug'd munosabatlari. "ART-FLEX", Toshkent, 2010.
3. Azimov X. Qadimgi Xitoy va Markaziy Osiyo munosabatlari (Xitoy manbalari asosida). – Toshkent: Fan ziyosi, 2024.
4. Гумилёв Л. Этногенез и биосфера земли. ГИДРОМЕТЕОИЗДАТ, 1990. С.221.

5. Maqsudov F va boshqalar. <https://youtu.be/b0UF6ZZb4K8?si=EWjN9MS-FDkgPCvE>
6. Ходжаев А. Из истории древних тюрков (сведения древнекитайских источников). – Ташкент: “Tafakkur”, 2010.
7. Xo‘jayev A. Eftaliylar Xitoy manbalarida // O‘zbekiston tarixi, 2021, №3.
8. Xo‘jayev A. Eftaliylar Xitoy manbalarida // O‘zbekiston tarixi, 2021, №3.
9. Ходжаев А. О трансформации “юечжи” из топонима в этноним// O‘zbekiston tarixi. 2005 №4.
10. Xo‘jayev A. O‘zbek xalqining etnik tarixini o‘rganishda qadimgi Xitoy manbalarining ahamiyati// O‘zbekiston tarixi, 2020,3-son.
11. Сведения древнекитайских источников по этнической истории Центральной Азии. Ташкент: Навруз, 2017.